



TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



MILLIY URF-ODATLARIMIZ KO‘HNA TARIXIMIZ DURDONASI

Oqbutayeva Tumora

O’zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti
1- bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O’zbek xalqining urf-odatlari va ularning o’rni haqida keng yoritilgan.*

Аннотация: В статье подробно освещаются традиции и обычаи узбекского народа, а также их роль.

Abstract: This article provides extensive coverage of the traditions and customs of the Uzbek people and their role

Kalit so’z: *Odat (urf-odat), milliy urf-odatlар, Beshik to’yi, Navro’z bayrami, Qurbon hayiti, oilaviy marosimlar.*

Ключевые слова: Обычай (традиция), национальные традиции, вертепная свадьба, праздник Навруз, Курбан-байрам, семейные обряды.

Keywords: Custom (custom), national traditions, Crib wedding, Navruz holiday, Eid al-Adha, family rituals.

Kirish: Dunyoda hech bir millat o’z tarixini chuqur anglamasdan turib buyuk kelajakni barpo eta olmaydi. Tarix esa o’sha xalqning milliy qadriyatları, moddiy-ma’naviy merosi, urf-odatlari va an’analarida o’z aksini topadi.

Odat(urf-odat)-kishilarning turmushiga singib ketgan,ma’lum muddatda takrorlanib turuvchi xatti-harakat,ko’pchilik tomonidan qabul qilingan xulq-atvor qoidalari ko’nikmasidir. Masalan,kichiklarning kattalarga salom berishi,uy-hovlini tartibga keltirib qo’yish, mexmonlarga alohida hurmat ko’rsatish, bayram arafasida keksa qariyalar,kasal,ojiz,qiynalgan kishilar holidan xabar olish,qo’ni-qo’shnilarining biror ishiga yordam berish,hasharga borish kabilar o’zbek xalqiga xos yaxshi odatlar hisoblanadi.

Milliy urf-odatlар millatning elat va etnik guruhlarning o’ziga xos qiyofasini belgilovchi harakat.O’zbek xalqining urf-odatlari “Beahik to’yi”, “Navro’z” bahorgi teng kunlik kuni, Ramazon hayiti va Qurbon hayitlari,oilaviy tantanalar, to’ylar, farzand tug’ilishi va boshqalar bilan bog’liq.

Beshik to’yi qadim zamonlardan har bir oilada o’tkazilib kelingani tufayli,bu marosim xalq madaniy hayotining ajralmas qismiga aylanib qolgan. Ammo beshik ayrim sho’ro mafkurasi jonbozлari tomonidan “chaqaloqlar turma”siga o’xshatilib,beshik to’yi o’tkazilishiga qarshi qattiq kurash olib borilgan.Aslida beshik insoniyat tarixida yaratilgan buyuk kashfiyotlaridan biridir. Beshik olis ajdodlarimiz aql-zakovati bilan ixtiro etilgan. Zamonlar o’tishi bilan u takomillashib,oddiiy,qulay va ko’p tomonlama foydali kashfiyot sifatida qo’llanilib kelinadi.Yaqin va O’rta Sharq, O’rta Osiyo xalqlari, jumladan o’zbeklar





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



oilasida to‘ng‘ich farzand tug‘ilishi sharafiga o‘tkaziladigan tantanali marosim. Bu udum O‘zbekiston viloyatlarida o‘ziga xos xususiyatlari bilan bir-biridan farq qiladi. Marosim oxirida yaqin qarindoshlar chaqaloq huzuriga, yuz ko‘rarga kirib sovg‘a berib, beshik ustiga shirinlik sochib baxt tilab chiqib ketadilar.



Tabiatda tun va kunning teng bo‘lishi, bahorning kirib kelishi, dalalarda ish boshlanishidan darak beruvchi, xalq tomonidan keng nishonlanuvchi Navro‘z bayrami o‘tgan davrlarda muayyan taqiqlarga duch kelsa-da, u xalq istagi bilan qayta tiklandi va 1990-yildan boshlab, mamlakatimizning rasmiy bayramiga aylantirildi. Navro‘z bayramining asosiy marosim-tadbiri mahalliy sharoit imkoniyatlari, bayramni o‘tkazish joyi, aholining qiziqishi, xalq talantlarining qobilyati va hakazolar turlicha o‘tkaziladi. Navro‘zda sumalak, va turli-xil miliy taomlar pishiriladi. Hususan: palov, manti, somsa, chuchvara, va boshqalar. Va Navro‘z bayramida saylga ham chiqishadi. U yerda odamlar o‘yin kulgu qilishadi, raqsga tushishadi, sumalak tayyorlashadi, o‘yinlar yushtiradilar. 2010-yil 23-fevralda Afg'oniston, Ozarbayjon, Hindiston, Eron, Iraq, Qozog'iston, Qirg'iziston, Pokiston, Tojikiston, Turkmaniston va Turkiyaning tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasi 21-martni “Xalqaro Navro‘z kuni” deb e'tirof etish haqida qaror qabul qilgan. YUNESKO e'lon qilishicha, Navro‘z muhim oilaviy an'anadir va bu bayramda pishiriladigan taomlar tozalik, farovonlik va boylikni ifoda etadi.



Qurban hayiti (arabcha nomi - “iyd al’kabir”, “iyd al’adho”) yetti kun, hozir uch kun hijriy zulhijja oyining 10-13-kunlarida va kichik bayram, Ro‘za hayiti (arabcha nomi - “iyd as-sag‘ir”, “iyd al-fitr”) ham uch kun shavval oyining 1-3-kunlarida nishonlanadi. “Hayit” so‘zi arab tilidan kirib kelgan so‘z bo‘lib, “iyd” – bayram, ma’nosini bildiradi.

Bu bayramlarning asosiy mazmuni ertalab masjidlarda nomoz o‘qish, marhumlarni yod etib, duoi fotiha qilishdan iborat. Qurban hayiti kunlari jonliq so‘yib qurbanlik qilishlari






TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



lozimligi aytilgan.Qurbonlik hijriy ikkinchi yil vojib bo‘lgan bo‘lsa-da, lekin uning tarixi ancha uzoqlarga – Ibrohim alayhissalom zamonlariga borib taqaladi va u zotdan bizga qolgan amallardandir. Bu haqda Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: “Qurbonlik qilinglar! Albatta, u otamiz Ibrohim alayhissalomning sunnatlaridir”, deganlar (Imom Abu Dovud rivoyati).



Oilaviy marosimlar oila paydo bo‘lishi bilan vujudga kelgan. Shu bilan birga o’zgargan,rivoj topgan.O’zbek xalqining oilaviy marosimlari ham tarixiy zaruriyat asosida vujudga kelgan va zamon chig’iriqlaridan o’tib, muhim ravnaq topgan. Oilaviy marosimlar jarayonida namoyon bo’ladigan odob-axloq,mehr-oqibat kabi xislatlar yoshlar ma’naviyati shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.Xalq an’analari qadrlanadigan oilalarda tarbiya topgan yoshlar ibrati, axloqi bilan ajralib turadi. Bunday oilalardan jinoyatchi, bezori,kishilar chiqmaydi. Har taraflama urf-odatlarimizni yoshlarimiz va kelajak avlodlarimiz uchun o’rni beqiyosdir.

Urf-odatlarimiz tushunchasi biz o’ylagandan ham ko’ra keng ko’lamliligi bilan e’tiboringizni tortgan holda, unda chaqaloqqa ism qo’yishdan tortib o’tganlar ruhini xotirlashgacha, muhim siyosiy voqealarni nishonlashdan boshlab san’at shodiyonalarini-yu sport tantanalarigacha kirishini teran anglab yetasiz. Aynan istiqlolgina urf-odatlarimiz tarixini o’rganish va yangi-yangi bayramlarni joriy etish imkonini berdi.Bizning ya’ni barcha o’zbek xalqining hayotida urf-odatlarimizni, bayramlarimizni o’rni beqiyosdir. Milliy urf-odatlarga befarqlik kishini,millatni o’zligidan uzoqlashtiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. U. Qoraboyev O’zbek xalqi bayramlari - Toshkent 2002.
2. I. Jabborov O’zbeklar: turmush tarzi va madaniyati- Toshkent 2003.
3. M.Imomnazarov, M.Eshmuhamedova Milliy ma’naviyatimiz asoslari- Toshkent 2001.

